



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-mart oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

JIZZAX VILOYAT TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(72) 221-51-26*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Jizzax viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **492 113,8** ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **226 637,4** ming AQSH dollariga yoki 85,4 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024–yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **492 113,8 +85,4 %**

(2023- y.: **265 476,4**)



Saldo

2024- y.: **-398 210,0** (2023- y.: **-168 176,2**)




Eksport

2024- y.: **46 951,9 -3,5 %**

(2023- y.: **48 650,1**)

TSA'dagi ulushi, % da

9,5



Import

2024- y.: **445 161,9 +2,1 m.**

(2023- y.: **216 826,3**)

90,5













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston viloyatsi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **46 951,9** ming AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,5 % ga kamaydi) va import hajmi **445 161,9** ming AQSH dollariga (2,1 martaga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **398 210,1** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



VILOYAT TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)











| | | | | |
|---|--|---|---|---|
| <p>Xitoy</p> <p>TSA – 208 502,5</p> <p>Eksport: 12 790,8 Import: 195 711,7</p> <p> 42,4 %</p> | <p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 138 324,5</p> <p>Eksport: 100,1 Import: 138 224,4</p> <p> 28,1 %</p> | <p>Litva</p> <p>TSA – 68 024,1</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 68 024,1</p> <p> 13,8 %</p> | <p>Rossiya</p> <p>TSA – 19 106,5</p> <p>Eksport: 13 748,5 Import: 5 358,0</p> <p> 3,9 %</p> | <p>Turkiya</p> <p>TSA – 15 784,6</p> <p>Eksport: 4 722,3 Import: 11 062,3</p> <p> 3,2 %</p> |
| <p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 10 806,3</p> <p>Eksport: 6 943,4 Import: 3 862,9</p> <p> 2,2 %</p> | <p>Germaniya</p> <p>TSA – 9 434,9</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 9 434,6</p> <p> 1,9 %</p> | <p>Hindiston</p> <p>TSA – 4 898,6</p> <p>Eksport: 401,0 Import: 4 497,6</p> <p> 1,0 %</p> | <p>Eron</p> <p>TSA – 2 717,4</p> <p>Eksport: 858,0 Import: 1 859,4</p> <p> 0,6 %</p> | <p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 2 273,0</p> <p>Eksport: 2 150,7 Import: 122,3</p> <p> 0,5 %</p> |

Viloyat jahonning 52 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (42,4 %), Koreya Respublikasida (28,1 %), Litvada (13,8 %), Rossiyada (3,9 %), Turkiyada (3,2 %) va Germaniyada (1,9 %) qayd etilgan.




VILOYATNING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2024 - yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

| Davlatlar | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|----------------------------|-----------------|------------------|------------------|
| Xitoy | 33 152,0 | 56 731,0 | 208 502,5 |
| <i>Eksport</i> | 10 940,5 | 7 295,7 | 12 790,8 |
| <i>Import</i> | 22 211,5 | 49 435,3 | 195 711,7 |
| Koreya Respublikasi | 39 779,8 | 102 046,3 | 138 324,5 |
| <i>Eksport</i> | 103,5 | 0,0 | 100,1 |
| <i>Import</i> | 39 676,3 | 102 046,3 | 138 224,4 |
| Litva | 639,8 | 6 805,8 | 68 024,1 |
| <i>Eksport</i> | 59,9 | 113,2 | |
| <i>Import</i> | 579,9 | 6 692,6 | 68 024,1 |
| Rossiya | 19 853,7 | 20 154,9 | 19 106,5 |
| <i>Eksport</i> | 8 754,3 | 16 309,6 | 13 748,5 |
| <i>Import</i> | 11 099,4 | 3 845,3 | 5 358,0 |
| Turkiya | 23 052,9 | 21 848,1 | 15 784,6 |
| <i>Eksport</i> | 14 906,8 | 13 287,9 | 4 722,3 |
| <i>Import</i> | 8 146,1 | 8 560,2 | 11 062,3 |
| Qozog'iston | 11 960,2 | 5 710,1 | 10 806,3 |
| <i>Eksport</i> | 7 067,5 | 2 363,3 | 6 943,4 |
| <i>Import</i> | 4 892,7 | 3 346,8 | 3 862,9 |
| Germaniya | 2 894,4 | 4 104,3 | 9 434,9 |
| <i>Eksport</i> | 370,3 | | 0,3 |
| <i>Import</i> | 2 524,1 | 4 104,3 | 9 434,6 |
| Hindiston | 1 060,0 | 866,3 | 4 898,6 |
| <i>Eksport</i> | 39,1 | 434,0 | 401,0 |
| <i>Import</i> | 1 020,9 | 432,3 | 4 497,6 |
| Eron | 832,7 | 1 718,6 | 2 717,4 |
| <i>Eksport</i> | 287,8 | 718,2 | 858,0 |
| <i>Import</i> | 544,9 | 1 000,4 | 1 859,4 |
| Afg'oniston | 2 477,2 | 971,4 | 2 273,0 |
| <i>Eksport</i> | 2 172,5 | 766,5 | 2 150,7 |
| <i>Import</i> | 304,7 | 204,9 | 122,3 |

| | Davlatlar | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|--|---------------------|----------------|----------------|----------------|
| | Qirg'iziston | 2 500,3 | 1 448,7 | 2 080,8 |
|  | <i>Ekspport</i> | 1 337,6 | 1 330,3 | 1 007,2 |
| | <i>Import</i> | 1 162,7 | 118,4 | 1 073,6 |
| | Yaponiya | 99,3 | 65,3 | 1 964,3 |
|  | <i>Ekspport</i> | 25,9 | 0,0 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 73,4 | 65,3 | 1 964,3 |
| | Ispaniya | 334,8 | 118,8 | 1 343,5 |
|  | <i>Ekspport</i> | 287,8 | 110,6 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 47,0 | 8,2 | 1 343,5 |
| | Italiya | 3 052,8 | 2 345,8 | 978,6 |
|  | <i>Ekspport</i> | 2 369,6 | 1 784,8 | 412,8 |
| | <i>Import</i> | 683,2 | 561,0 | 565,8 |
| | Tojikiston | 1 884,2 | 776,4 | 548,4 |
|  | <i>Ekspport</i> | 675,2 | 775,2 | 548,4 |
| | <i>Import</i> | 1 209,0 | 1,2 | 0,0 |
| | Pokiston | 1 499,2 | 874,4 | 527,2 |
|  | <i>Ekspport</i> | 542,3 | 872,4 | 433,9 |
| | <i>Import</i> | 956,9 | 2,0 | 93,3 |
| | Iroq | 17,2 | 319,5 | 502,2 |
|  | <i>Ekspport</i> | 17,2 | 319,5 | 502,2 |
| | <i>Import</i> | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| | Belarus | 659,5 | 542,8 | 442,6 |
|  | <i>Ekspport</i> | 122,6 | 171,9 | 98,0 |
| | <i>Import</i> | 536,9 | 370,9 | 344,6 |
| | Polsha | 1328,8 | 452,7 | 369,2 |
|  | <i>Ekspport</i> | 1230,3 | 433,0 | 287,7 |
| | <i>Import</i> | 98,5 | 19,7 | 81,5 |
| | Belgiya | 44,8 | 18,5 | 351,8 |
|  | <i>Ekspport</i> | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| | <i>Import</i> | 44,8 | 18,5 | 351,8 |



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)*




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni **G'allaorol tumani** 38,1 % ulush bilan 187 564,8 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **Yangiobod tumani** 0,04 % ulush bilan 209,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan



VILOYATNING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2024-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi)



2024-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 6,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga kamaydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 93,2 % ni tashkil etdi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-mart oylarida **33 550,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **22 785,7** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **10 764,5** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)

Rossiya – 56,9



Qozog'iston – 32,2



Qirg'iz
Respublikasi – 6,2



Tojikiston – 1,6



Belarus– 1,3



Ukraina – 0,9



Ozarbayjon – 0,5




Turkmaniston – 0,3




Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (56,9 %), Qozog'iston (32,2 %) hamda Qirg'iziston (6,2 %) davlatlari bilan qayd etildi.

VILOYATNING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)



 Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **32 436,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **21 797,1** ming AQSH dollari, import hajmi esa **10 639,1** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



JIZZAX VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni **80** taga yetdi va ular tomonidan **46 951,9** ming AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart ulushi % da)



Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-mart, yillar kesimida)

| XSST tarkibi | Ming AQSH dollari | | O'zgarish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|---|-------------------|-----------------|-------------------------|-------------|------------------------------|--------------|
| | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 |
| Jami eksport | 48 650,1 | 46 951,8 | 91,7 | 96,5 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5 955,7 | 10 416,4 | 41,8 | 174,9 | 12,2 | 22,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 24,9 | 5,6 | 0,0 | 22,3 | 0,1 | |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 1 310,5 | 1 977,3 | 88,8 | 150,9 | 2,7 | 4,2 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,0 | 33,5 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 3 558,1 | 3 775,8 | 2,6 m. | 106,1 | 7,4 | 8,0 |
| Sanoat tovarlari | 29 698,5 | 25 258,6 | 96,6 | 85,1 | 61,0 | 53,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 766,8 | 477,0 | 191,4 | 62,2 | 1,6 | 1,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 7 222,7 | 4 874,7 | 157,4 | 67,5 | 14,8 | 10,4 |
| Xizmatlar | 112,8 | 133,0 | 113,6 | 117,9 | 0,2 | 0,3 |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (53,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (22,2 %) va turli xil tayyor buyumlar (10,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-mart)

|  XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|-------------------|--|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 6 039,2 | 162,4 |
| Sabzavotlar va mevalar | 7 577,1 | 151,4 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 2 584,5 | 2,9 m. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 0,0 | 0,0 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 182,4 | 3,1 m. |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 34,5 | 9,2 m. |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 0,0 | 0,0 |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 37,9 | 0,0 |
| Tirik hayvonlar | 0,0 | 0,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 5,6 | 22,3 |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | 5,3 | 141,7 |
| Ichimliklar | 0,2 | 1,2 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 1 977,3 | 150,9 |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 194,6 | 92,1 |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 82,3 | 19,9 m. |
| Metall rudalari va metall parchalari | | |
| Qog'oz massasi va makulatura | 1 226,8 | 2,0 m. |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 114,0 | 95,8 |
| Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar | 359,5 | 99,0 |
| Probka va yog'och-taxtalar | 0,0 | 0,0 |
| Tabiiy kauchuk | 0,0 | 0,0 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,0 | 0,0 |
| Tabiiy yoki sun'iy gaz | 0,0 | 0,0 |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 0,0 | 0,0 |
| Elektr toki | 0,0 | 0,0 |
| Ko'mir, koks va briketlar | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 33,5 | 0,0 |
| O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan | 33,5 | 0,0 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 3 775,8 | 106,1 |
| Noorganik kimyo moddalari | 1,8 | 2,4 m. |
| O'g'itlar | 1 446,7 | 93,0 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | | |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 281,4 | 106,8 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | | |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | | |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar | 187,8 | 70,5 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 1 857,9 | 126,2 |
| Organik kimyo moddalari | 0,0 | 0,0 |


| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|--|-------------------|--|
| Sanoat tovarlari | 25 258,6 | 85,1 |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | 20 213,7 | 70,3 |
| Rangli metallar | | |
| Cho'yan va po'lat | | |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 5 009,6 | 5,6 m. |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 34,5 | 96,7 |
| Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar | 0,0 | 0,0 |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna | 0,0 | 0,0 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 0,0 | 0,0 |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 0,9 | 22,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | 477,0 | 62,2 |
| Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham) | 0,0 | 0,0 |
| <i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i> | 0,0 | 0,0 |
| Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari | 465,1 | 61,2 |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 0,0 | 0,0 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari | 0,0 | 0,0 |
| Boshqa transport uskunolari | 0,0 | 0,0 |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 2,6 | 50,6 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 9,3 | 0,0 |
| Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 0,0 | 0,0 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 0,0 | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 4 874,7 | 67,5 |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 4 663,2 | 68,0 |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 27,4 | 180,4 |
| Poyabzal | 0,6 | 0,0 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel | 0,0 | 0,0 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 183,5 | 52,0 |
| Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar | 0,0 | 0,0 |
| Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar | 0,0 | 0,0 |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar | 0,0 | 0,0 |

ViLOYAT tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2024-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz XXR, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Eron va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 89,0 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)






VILOYATNING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024 yil yanvar-mart)

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Egallab turgan o'rni | |
|--------------|-------------------|----------|----------------------|----------|----------------------|---------|
| | 2023-y. | 2024-y. | 2023-y. | 2024-y. | 2023-y. | 2024-y. |
| Rossiya | 16 309,6 | 13 748,5 | 186,3 | 84,3 | 1 | 1 |
| XXR | 7 295,7 | 12 790,8 | 66,7 | 175,3 | 3 | 2 |
| Qozog'iston | 2 363,3 | 6 943,4 | 33,4 | 2,9 m. | 4 | 3 |
| Turkiya | 13 287,9 | 4 722,3 | 89,1 | 35,5 | 2 | 4 |
| Afg'oniston | 766,5 | 2 150,7 | 35,3 | 2,8 m. | 9 | 5 |
| Qirg'iziston | 1 330,3 | 1 007,1 | 99,5 | 75,7 | 6 | 6 |
| Eron | 718,2 | 858,0 | 2,5 m. | 119,5 | 10 | 7 |
| Tojikiston | 775,2 | 548,4 | 114,8 | 70,7 | 8 | 8 |
| Iroq | 319,5 | 502,2 | 18,5 m. | 157,2 | 15 | 9 |
| Pokiston | 872,4 | 433,9 | 160,9 | 49,7 | 7 | 10 |
| Italiya | 1 784,8 | 412,8 | 75,3 | 23,1 | 5 | 11 |
| Hindiston | 434,0 | 401,0 | 11,1 m. | 92,4 | 11 | 12 |
| Polsha | 433,0 | 287,7 | 35,2 | 66,4 | 12 | 13 |
| Peru | 0,0 | 270,9 | 0,0 | 0,0 | 28 | 14 |
| Ukraina | 0,0 | 268,6 | 0,0 | 0,0 | 29 | 15 |
| Gruziya | 206,9 | 165,2 | 192,8 | 79,8 | 17 | 16 |
| Ozarbayjon | 235,9 | 144,3 | 2,3 m. | 61,2 | 16 | 17 |
| AQSH | 1,3 | 141,7 | 1,2 | 109,8 m. | 27 | 18 |
| Braziliya | 0,0 | 134,8 | 0,0 | 0,0 | 30 | 19 |
| Misr | 0,0 | 134,0 | 0,0 | 0,0 | 31 | 20 |



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)*





Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni **Jizzax shahri** 36,8 % bilan 17 267,1 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **Yangiobod tumani** 0,2 % bilan 96,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-mart)

| Davlatlar | Tonna | Ming AQSH dollari | Ulushi, % da * |
|--|----------|-------------------|----------------|
|  Qozog'iston | 16 375,0 | 5 975,5 | 78,9 |
|  Iroq | 1 036,8 | 280,0 | 3,7 |
|  Rossiya | 176,6 | 232,3 | 3,1 |
|  Eron | 301,3 | 228,9 | 3,0 |
|  Afg'oniston | 163,4 | 209,5 | 2,8 |
|  Turkiya | 261,5 | 208,5 | 2,8 |
|  Gruzuya | 394,5 | 150,5 | 2,0 |
|  Pokiston | 181,7 | 129,5 | 1,7 |
|  Ukraina | 62,6 | 61,6 | 0,8 |
|  Bahreyn | 23,0 | 50,6 | 0,7 |
|  Turkmaniston | 168,0 | 26,8 | 0,4 |
|  Boshqa davlatlar | 68,5 | 23,5 | 0,3 |




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oylarida 19 212,9 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0 martaga yoki 12 818,1 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (78,9 %), Iroq (3,7 %) Rossiya (3,1 %), hamda Eron (3,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 133,0 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,3 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (71,5 %), safarlar (turizm) (20,2 %) va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.



JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 445 161,9 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,1 martani tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (93,4 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (2,1 %) hamda sanoat tovarlari (1,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 228 335,6 ming AQSH dollariga ko'paydi va 445 161,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-mart, yillar kesimida)


| XSST tarkibi | Ming AQSH dollari | | O‘shish sur‘ati, % da | | Umumiy hajmga nis- batan. % da | |
|--|-------------------|----------------|--------------------------|---------------|--------------------------------------|--------------|
| | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 |
| Jami import | 216 826,4 | 445 162 | 2,1 m. | 2,1 m. | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 3 703,3 | 6 745,2 | 47,1 | 182,1 | 1,7 | 1,5 |
| Ichimliklar va tamaki | | | | | | |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 3 480,5 | 949,5 | 170,6 | 27,3 | 1,6 | 0,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 1 038,1 | 3 242,3 | 88,6 | 3,1 m. | 0,5 | 0,7 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 5 471,5 | 9 175,2 | 72,8 | 167,7 | 2,5 | 2,1 |
| Sanoat tovarlari | 6 010,7 | 5 421,5 | 57,4 | 90,2 | 2,8 | 1,3 |
| Mashinalar va transport asbob- uskunalari | 194 860,0 | 415 986,3 | 2,8 m. | 2,1 m. | 89,9 | 93,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2 261,0 | 3 641,9 | 79,8 | 161,1 | 1,1 | 0,8 |




XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart)


| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|--|-------------------|--|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 6 745,2 | 182,1 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 1 624,4 | 91,8 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 811,4 | 104,1 m. |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 103,3 | 2,0 m. |
| Sabzavotlar va mevalar | 2 569,5 | 5,1 m. |
| Go'sht va go'sht mahsulotlari | 0,0 | 0,0 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 104,3 | 24,8 |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 173,1 | 25,1 |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 0,0 | 0,0 |
| Tirik hayvonlar | 1 359,1 | 5,6 m. |
| Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar | 0,0 | 0,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 |
| Ichimliklar | 0,0 | 0,0 |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 949,5 | 27,3 |
| Probka va yog'och-taxtalar | 236,9 | 29,2 |
| Metall rudalari va metall parchalari | 254,6 | 5,9 m. |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 440,6 | 115,6 |
| Yog'li urug'lar va yog'li mevalar | 0,3 | 0,5 |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 10,3 | 21,5 m. |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 6,7 | 0,3 |
| Qog'oz massasi va makulatura | 0,0 | 0,0 |
| Tabiiy kauchuk | 0,0 | 0,0 |
| Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan | 0,0 | 0,0 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 3 242,0 | 3,1 m. |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 2 033,4 | 3,3 m. |
| Ko'mir, koks va briketlar | 1 208,9 | 2,9 m. |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,0 | 0,0 |
| O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 0,0 | 0,0 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar | 0,0 | 0,0 |
| Hayvonlarning moylari va yog'lari | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 9 175,2 | 167,7 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 4 152,2 | 5,2 m. |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 2 037,6 | 115,9 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 946,8 | 157,6 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 123,2 | 155,2 |
| Noorganik kimyo moddalari | 299,2 | 114,2 |
| Organik kimyo moddalari | 522,0 | 61,8 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 704,0 | 8,0 m. |
| O'g'itlar | 0,0 | 0,0 |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar | 390,3 | 100,4 |

| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|--|-------------------|--|
| Sanoat tovarlari | 5 421,5 | 90,2 |
| Cho'yan va po'lat | 1 372,6 | 84,2 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 686,2 | 172,0 |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | 2 181,1 | 100,1 |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 198,8 | 99,2 |
| Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | 45,3 | 44,5 |
| Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar | 691,8 | 56,4 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 0,0 | 0,0 |
| Rangli metallar | 245,6 | 94,1 |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna | 0,0 | 0,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | 415 986,3 | 2,1 m. |
| Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) <i>shu jumladan:</i> | 254 028,0 | 190,4 |
| <i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i> | | |
| <i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i> | | |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 66 403,3 | 3,8 m. |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari | 89 199,5 | 2,2 m. |
| Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari | 3 835,2 | 148,3 |
| Boshqa transport uskunolari | | |
| <i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i> | | |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 931,9 | 4,4 m. |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari | 336,0 | 115,3 |
| Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 34,0 | 34,4 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 1 218,4 | 290,1 m. |
| Turli xil tayyor buyumlar | 3 641,9 | 161,1 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 1 407,1 | 98,8 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar | 1 230,2 | 2,3 m. |
| Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 74,1 | 2,1 m. |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel | 143,5 | 4,9 m. |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 48,5 | 121,1 |
| Poyabzal | 7,1 | |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar | 729,3 | 3,7 m. |
| Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar | 2,2 | 717,3 m. |

 2024- yil yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlarini import ulushi 2,4 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(2024-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi)



 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat 33 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, va Germaniya) jami importning 95,5 % ulishini tashkil etdi.

 **VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI** *(2024- yil yanvar-mart, % da)*






VILOYATNING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(2024-yil yanvar-mart)

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Umumiy hajmdagi o'rni | |
|---------------------|-------------------|-----------|----------------------|----------|-----------------------|----------|
| | 2023- y. | 2024- y. | 2023- y. | 2024- y. | 2023- y. | 2024- y. |
| XXR | 56 731,0 | 208 502,5 | 171,1 | 3,7 m. | 2 | 1 |
| Koreya Respublikasi | 102 046,3 | 138 324,5 | 2,6 m. | 135,6 | 1 | 2 |
| Litva | 6 805,8 | 68 024,1 | 10,6 m. | 9,9 m. | 6 | 3 |
| Rossiya | 20 154,9 | 19 106,5 | 101,5 | 94,8 | 5 | 4 |
| Turkiya | 21 848,1 | 15 784,6 | 94,8 | 72,2 | 4 | 5 |
| Qozog'iston | 5 710,1 | 10 806,4 | 47,7 | 189,2 | 7 | 6 |
| Germaniya | 4 104,3 | 9 434,9 | 141,8 | 2,3 m. | 8 | 7 |
| Hindiston | 866,3 | 4 898,6 | 81,7 | 5,6 m. | 17 | 8 |
| Eron | 1 718,6 | 2 717,4 | 2,1 m. | 158,1 | 11 | 9 |
| Afg'oniston | 971,4 | 2 273,0 | 39,2 | 2,3 m. | 15 | 10 |
| Qirg'iziston | 1 448,7 | 2 080,8 | 57,9 | 143,6 | 13 | 11 |
| Yaponiya | 65,3 | 1 964,3 | 65,7 | 30,1 m. | 37 | 12 |
| Ispaniya | 118,8 | 1 343,5 | 35,5 | 11,3 m. | 33 | 13 |
| Italiya | 2 345,8 | 978,6 | 76,8 | 41,7 | 9 | 14 |
| Tojikiston | 776,4 | 548,4 | 41,2 | 70,6 | 18 | 15 |
| Pokiston | 874,4 | 527,2 | 58,3 | 60,3 | 16 | 16 |
| Iroq | 319,5 | 502,2 | 18,5 m. | 157,2 | 26 | 17 |
| Belarus | 542,7 | 442,6 | 82,3 | 81,5 | 19 | 18 |
| Polsha | 452,7 | 369,2 | 34,1 | 81,6 | 21 | 19 |
| Belgiya | 18,5 | 351,8 | 41,3 | 19,0 m. | 43 | 20 |



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.


Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni **G'allaorol tumani** 38,1 % bilan 185 918,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **Yangiobod tumani** 0,04 % bilan 209,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 5 421,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,8 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 1,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart)

2 585,5 ming AQSH doll.
ulushi – 47,7 %



XXR

824,8 ming AQSH doll.
ulushi – 15,2 %



Turkiya

563,6 ming AQSH doll.
ulushi – 10,4 %



Qozog'iston

329,6 ming AQSH doll.
ulushi – 6,1 %



Bangladesh

277,6 ming AQSH doll.
ulushi – 5,1 %



Rossiya



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (2 180,1 ming AQSH dollari), cho'yan va po'lat (1 372,6 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (686,2 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (198,8 ming AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.